DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA RAVON NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING FUNKSIONAL MODELI

Ch.F. Abdullayeva
GulDPI “Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda differensial yondashuv asosida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funksional modeli tahlil qilingan. Tadqiqotda modelning nazariy-metodologik asoslari sifatida kompetensiyaviy, kommunikativ, differensial, psixolingvistik hamda sotsiokultural yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ravon nutqni shakllantirishda maqsad, mazmun, metod, jarayon va natija komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi izohlangan. Model asosida nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish, individual yondashuvni ta’minlash va talabalarning kommunikativ faolligini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan

Kalit so‘zlar: ravon nutq kompetensiyasi, differensial yondashuv, mantiqiy-funksional model, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, psixolingvistika, sotsiokultural yondashuv, speaking, interaktiv metodlar, pedagogik model.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, uning ichki tuzilishini aniqlashtirish hamda natijadorligini oshirish maqsadida turli modellardan foydalanish keng qo‘llanilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv sharoitida til o‘qitish jarayonini tizimli ravishda loyihalash zarurati mantiqiy-funktsional modelni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday model o‘quv jarayonining asosiy komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda ularning amaliy faoliyatdagi ishlash mexanizmini aniqlashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda

tushuntirish va uni samarali tashkil etish uchun mantiqiy-funktsional model tushunchasiga aniqlik kiritish zarur deb hisobladik.

Mantiqiy-funktsional model ta’lim jarayonini tashkil etuvchi komponentlar (maqsad, mazmun, metod, jarayon va natija) o‘rtasidagi izchil bog‘liqlikni hamda ularning amaliy faoliyatdagi ishlash mexanizmini aks ettiruvchi tizimli pedagogik konstruksiya sifatida talqin etiladi. Ushbu model o‘quv jarayonining ichki mantiqiy tuzilishini va uning qanday amalga oshirilishini (ya’ni funksional jihatini) bir butun holda ifodalaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan mantiqiy-funktsional model nafaqat ta’lim mazmunini tavsiflaydi, balki o‘quv faoliyatining bosqichlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda kutilayotgan natijalarga olib boruvchi jarayonni ham aniqlashtiradi. Shu bois u o‘qitish jarayonini loyihalash, boshqarish va samaradorligini baholash uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

Ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish kontekstida mazkur model nutqiy faoliyatning shakllanish bosqichlarini, ularni ta’minlovchi didaktik vositalarni hamda natijaviy ko‘rsatkichlarni yagona tizimda birlashtirib, o‘quv jarayonining izchil va maqsadga yo‘naltirilgan tashkil etilishini ta’minlaydi.

Talabalarning ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mantiqiy-funktsional modelni ishlab chiqish zamonaviy til ta’limining nazariy va metodik asoslariga tayanishni talab etadi. Chunki nutqiy kompetensiya murakkab, ko‘p komponentli hodisa bo‘lib, uni shakllantirish faqat alohida metod yoki mashqlar orqali emas, balki yaxlit pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi. Shu bois mazkur modelni yaratishda kompetensiyaviy, kommunikativ va differensial yondashuvlar o‘zaro integratsiyalashgan holda asos qilib olinadi.

Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv modelning umumiy metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi talabalarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Ravon nutq kompetensiyasi aynan shunday integrativ natija bo‘lib, u til birliklarini tez, uzluksiz va kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Shu sababli modelda nutqiy faoliyat yakuniy natija sifatida emas, balki o‘quv jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi.

Ikkinchi muhim asos — kommunikativ yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv til o‘rganishni real muloqot jarayoni bilan bog‘laydi va nutqiy faoliyatni o‘quv jarayonining asosiy mazmuni sifatida talqin etadi. D.H. Hymes va keyingi tadqiqotchilar tomonidan asoslangan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, tilni egallash uning grammatik tizimini bilish bilan emas, balki uni turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish bilan belgilanadi. Shu bois ishlab chiqilayotgan modelda nutqiy faoliyat sun’iy mashqlar bilan cheklanmay, balki real kommunikativ vaziyatlarga yaqin sharoitlarda tashkil etiladi [1].

Modelning yana bir muhim pedagogik asosi differensial yondashuv bilan bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar o‘rtasidagi individual farqlar — ularning til darajasi, o‘rganish tezligi, kognitiv imkoniyatlari va motivatsiyasi — o‘quv jarayonini tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. C.A. Tomlinson ta’kidlaganidek, samarali o‘qitish talabalarning ushbu farqlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim [2]. Shu sababli mantiqiy-funktsional modelda nutqiy faoliyatni differensial asosda tashkil etish, ya’ni topshiriqlarni darajalash, individual o‘rganish trayektoriyasini shakllantirish va moslashuvchan metodlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, modelni ishlab chiqishda psixolingvistik asoslar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, nutq ishlab chiqarish jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi ravon nutqni rivojlantirishda o‘quv faoliyatini izchil rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa nutqiy faoliyatni controlled, guided va free speaking bosqichlari asosida tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bunday bosqichlilik talabaning nutqiy mustaqilligini asta-sekin shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sotsiokultural yondashuv ham modelning muhim nazariy tayanchlaridan biri hisoblanadi. L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganish ijtimoiy muloqot jarayonida amalga oshadi va o‘quvchining rivojlanishi hamkorlik asosida yuz beradi[3]. Shu sababli modelda interaktiv metodlar, juftlik va guruh ishlari orqali nutqiy faoliyatni tashkil etish muhim pedagogik shart sifatida qaraladi.

Talabalarning ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mantiqiy-funktsional model kompetensiyaviy, kommunikativ, differensial, psixolingvistik va sotsiokultural yondashuvlarning integratsiyasi asosida ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuvlarning uyg‘unligi o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish, nutqiy faollikni oshirish hamda ravon nutq kompetensiyasini samarali shakllantirish imkonini beradi Ushbu rasm talabalarning ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funktsional modelini ifodalaydi. Model o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishni ko‘rsatib, maqsaddan boshlab mazmun, jarayon, differensial yondashuv va baholash orqali yakuniy natijaga olib boruvchi izchil pedagogik tizimni aks ettiradi. Unda nutqiy faoliyatning rivoji ketma-ketlik asosida amalga oshirilishi va har bir bosqichning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hymes, D. H. “On Communicative Competence” In: Pride J.B., Holmes J. (Eds.), “Sociolinguistics”, Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – pp. 269–293.

2. Tomlinson, C. A. “How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms” (2nd ed). Alexandria, VA: ASCD, 2001. – pp. 5–7.

3. Vygotsky, L. S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – pp. 84–91.